



Xoliqova Mohira Kundibayevna,

*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti, Mahalla institutini mustahkamlash bo‘limi boshlig‘i,
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent. avestabest@mail.ru*

POSTINDUSTRIAL TAMADDUN KONTEKSTIDA AXBOROT VA BILIMLAR JAMIYATINING KONSEPTUAL DETERMINANTALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy postindustrial taraqqiyot kontekstida ijtimoiy nazariyalar va konsepsiyalar, xususan, axborot va bilimlar jamiyatining (knowledge society) konseptual determinantlari kontent-tahlil qilinadi hamda bilimlar jamiyatining tamaddun evolyutsiyasi, ta’lim rivoji va shaxs ijtimoiylashuvidagi ahamiyati forsait tadqiqotlar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: postindustrial jamiyat, axborot jamiyati, knowledge society (bilimlar jamiyati), consumer society, determinanta, konsept, ta’lim, shaxs, kompetensiya, forsait-tahlil, andragogika, ijtimoiy pedagogika, sotsiologiya, transformatsiya, globallashuv, paradigma, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье проанализированы социальные теории и концепции в контексте современного постиндустриального развития, в частности, концептуальные детерминанты информационного общества и общества знаний, а также значение общества знаний в эволюции цивилизации, развитии образования и социализации личности.

Ключевые слова: постиндустриальное общество, информационное общество, knowledge society (общество знаний), consumer society, детерминанта, концепция, образование, личность, компетентность, форсайт анализ, андрагогика, социальная педагогика, социология, трансформация, глобализация, парадигма, инновации.

Annotation. This article analyzes social theories and concepts in the context of modern post-industrial development, in particular, the conceptual determinants of the information society and the knowledge society, the importance of the knowledge society in the evolution of civilization, the development of education and socialization of the individual.

Keywords: post-industrial society, information society, knowledge society, consumer society, determinant, concept, education, personality, competence, foresight analysis, andragogy, social pedagogy, sociology, transformation, globalization, paradigm, innovation.

Scientia est potentia.

Frensis Bekon

*Yoki butun dunyo saqlanib
qoladi, yoki butun sivilizatsiya yo‘q
bo‘lib ketadi.*

Moris Strong

Kirish. Zamonaviy jamiyatning o‘ziga xos immanent xususiyatlarini tatqiq qilish insoniyat tamadduni global o‘zgarishlarini o‘rganishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar to‘plami asosida, insoniyatga

yangi tahdidlarning, masalan, texnologik taraqqiyotni o‘z ichiga oladigan ijtimoiy o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bilimning o‘zgaruvchan kuchi haqidagi g‘oyalar ijtimoiy tafakkur genezisida (Platon, Aristotel, Tit Lukretsiy Kar, Ovidiy, Rene Dekart, Immanuel Kant, Frensis Bekon) muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatning o‘ziga xosligini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy nazariyalarda bilimning roliga alohida e’tibor berilgan.

Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ushbu nazariyalar va ilmiy dasturlarning paydo bo‘lishi shartidagi aniq

farqlarga qaramay, bilimning ijtimoiy roli haqida gap ketganda, ba'zi korrelyatsiyalarni topish mumkin. Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarning ko'pchiligi, xususan, texnik va ilmiy bilimlarning samaradorligini yuqori baholashi, "bilim"ning batafsil konsepsiyasi yo'qligi, bilimga bo'lgan talabning o'sib borish sabablarini tushuntirib bera olmaslik va madaniy marker sifatida uning tarqalish yo'llarini izlay olmasligi bilan ajralib turadi.

Bilimning jamiyatga ta'siri kuchayib borayotgan ijtimoiy davrda tamaddun taraqqiyotiga oid kontent-tahlillar hamda farsayt tadqiqotlar (kelajakni ilmiy bashorat qilish, bo'layotgan o'zgarishlarni muvaffaqiyatli tahlil qilish) muhim ahamiyatga ega. Xususan, yangi tarixiy davr-axborot jamiyatining nazariyalari bu muammoni hal qilishga, madaniyatlararo muloqot va o'zaro ta'sirning yangi imkoniyatlari bilan bog'liq holda ijtimoiy o'zgarishlar jarayonlarini stratifikatsiyasiga qaratilgan. Bilimlar jamiyati nazariyalarining keyingi munozarasi bu – nazariy tadqiqotlar haqida qisqacha tarixiy ma'lumot berishga urinish va shu bilan birga, e'tiborni axborot jamiyatining istiqboli bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-ekzistensial rivojlanish aspektlariga qaratishdir.

Insoniyat tamadduni tarixida qiyosi bo'lmagan iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy formatsiyasi spetsifik ijtimoiy tartibning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish, ijtimoiy voqelikni shakllantirishning asosiy tendensiyalarini baholash, ushbu kontekstda shaxs va jamiyat ehtiyojlarini anglash, ijtimoiy institutlar faoliyatini tashkil qilish, xususan, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish sotsiologiya, ijtimoiy pedagogika, andragogika sohasidagi tadqiqotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Global ijtimoiy muhit kontekstida ta'limning xususiyatlarini tadqiq etishda zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyalar, patternlar hamda trendlarni o'rganish muhim vazifa hisoblanadi. XXI asrda butun dunyodagi iqtisodiyot va kundalik hayot ko'lamini o'zgartirgan ikkita katta ijtimoiy fenomen – texnologik taraqqiyot va global iqtisodiyot yuz berdi hamda jahon hamjamiyati tarixiy rivojlanishining bir qator modernistik tendensiyalari paydo bo'ldi. Zamonaviy iqtisodiyotning ilmiy-ekzistensial manzarasini eksponensial rivojlanish, Internet, digitallashtirish,

nanotexnologiyalar, 3D-texnologiyalar, gen injeneriyasi kabi omillar tashkil etadi, kelajakda vaqt o'tishi bilan yoki atrof-muhit o'zgarishiga qarab o'z shaklini yoki funksiyasini o'zgartiradigan obyektlarni loyihalashga imkon beradigan texnologiyalarning yaratilishi bashorat qilinmoqda. Ushbu o'zgarishlar ijtimoiy hayotga, xususan, ta'lim tizimiga qanday ta'sir qiladi? Hozirgi vaqtda pedagoglar, andragoglar, sotsiologlar, psixologlar, farsayt-analitiklar, futurologlar, iqtisodchilar, madaniyatshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan hamda ilgari surilayotgan zamonaviy obyektiv voqelik, uning ijtimoiy-madaniy holatini tushuntirishga qaratilgan ko'plab nazariyalar mavjud. Mazkur maqolada turli bilim sohalari nuqtayi nazaridan zamonaviy jamiyatning eng muhim nazariyalarini ko'rib chiqish, ularning passionar va diskret xususiyatlarini tasniflash hamda empirik tahlil qilishga urinish ko'ramiz.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Postindustrial axborot jamiyatining nazariyotchilari har bir inson uchun shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarining ko'payishini ushbu turdagi jamiyat faoliyatining asosiy tamoyillari deb ataydilar. Ba'zi tadqiqotchilar insoniyat axborot, bilim, ma'lumot va ilmiy taraqqiyot kvintessensiyasi yetakchi rol o'ynaydigan yangi davrga kirdi, deb hisoblaydi (**Maxlup¹, Bell²**). Tadqiqotchilarning boshqa guruhi esa ijtimoiy faoliyatning hozirgi bosqichini oldingilari bilan uzviy bog'liq shaklda o'rganishni ma'qul ko'radi (**Giddens³, Maklyuen⁴**). Eksponensial taraqqiyot, jamiyatning "digitalizatsiyasi", ma'lumotlarning eksponent ko'payishi va axborot almashinuvining faollashuvi butunlay yangi, paradoksal hodisalarning turkumini vujudga keltirdi. Zamonaviy jamiyat ilm-fan sohasi hamda shaxsiy qarashlar va pozitsiyalar kontekstida *postmodernistik, postindustrial, postkapitalistik, post-iqtisodiy, bilimlar, axborot, onlayn jamiyati* deb nomlanmoqda.

Ingliz sotsiologi, Kembrij universiteti professori, jamiyatlar tuzilishi nazariyasi asoschilaridan biri

¹ Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. – Москва: Прогресс, 1966. – 462 с.

² Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: Опыт социального прогнозирования. Пер. с англ. / Иноземцев В.Л. – Москва: Academia, 1999. – 956 с.

³ Гидденс Э. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. – Москва: Весь мир, 2004.

⁴ Маклюэн Г. М. Галактика Гутенберга. Сотворение человека печатной культуры. – Перевод с английского и примечания: А. Юдин. – Москва, 2003.

Entoni Giddens (Anthony Giddens)⁵ jamiyat har doim informatsion bo'lgan va alohida axborot asrini ajratib ko'rsatish noto'g'ri deb ta'kidlaydi. Giddens "refleksiv modernizatsiya" g'oyasini ilgari surar ekan, ijtimoiy rivojlanish jarayoni shaxsning tabiiy omillardan mustaqilligining o'sishi bilan yuz berishini ta'kidlaydi. Kanadalik sotsiolog, lingvist, madaniyatshunos **Gerbert Marshall Maklyuen** (Herbert Marshall McLuhan)ning jamiyat rivojiga oid qarashlari alohida e'tiborga loyiq⁶. O'zining ijtimoiy taraqqiyot, paradigmalar almashinuvi, media sotsiologiyasi meynstrimi, texnologik determinizmga oid qarashlarida Maklyuen insoniyat tarixi davomida mavjud dominant aloqa shakllarining ijtimoiy o'zgarishlariga tayangan. U shartli ravishda rivojlanishning quyidagi gomogen davrlarini ajratib ko'rsatdi: birinchi davrda asosiy aloqa vositasi og'zaki nutq bo'lgani sababli "*tinglovchi odam*" hukmronlik qildi, ikkinchi davrda bosmaxona ixtirosi va yozuvning kashf etilishi va tarqalishi bilan bog'liq ravishda dunyoni vizual, ratsional idrok etuvchi "*ko'ruvchi odam*" hukmronligi yuz berdi. Avvalgi ikki davrning simbiozidan iborat bo'lgan uchinchi davrda jamiyat "*global qishloq*"qa aylanadi hamda unga bog'liq ravishda to'plangan ma'lumotlarning barcha jamiyat a'zolari orasida tez tarqalishi bilan kechadigan axborot madaniyati davri boshlanadi⁷.

Bilimga asoslangan jamiyat klassik ma'nodagi jamiyatlarning passionar, tarixiy-evolyutsion rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiradi. Masalan, Yunon tamaddunini o'z ichiga oladigan antik jamiyatda iqtisodiy faoliyatning turlarini farqlash sifatida otium va negotium tushunchalari qo'llanilgan. **Negotium** muayyan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat turi bo'lsa, **otium** astrologiya, falsafa, mantiq, ritorika, she'riyat, estetika, arifmetika kabi shaxsning ruhiy-ma'naviy kamolotini belgilab beradigan jarayon hisoblangan. Darhaqiqat, ushbu fanlar mazmunining muhim qismini inson kamoloti, jamiyatning axloqiy muammolari, hayot mohiyati, ijtimoiy va siyosiy hayotni boshqarishning fundamental usullari

tashkil etdi. Shuning uchun bu jamiyatlarni bilimga asoslangan jamiyatlarning klassik ko'rinishi deyish mumkin. O'rta asrlarda yuqori ijtimoiy strata vakillari **trivium** hamda **quadrivium** (gumanitar hamda aniq fanlar tizimining umumiy nomlari) turkumiga mansub yettita bilim sohasini o'zlashtirishlari lozim edi (grammatika, logika, ritorika, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa). Ushbu "san'atlar" intellektual xususiyatga ega bo'lib, ular moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan mexanik san'atdan ajralib turgan. O'shandan beri ushbu ikki sohani erkin fuqaro uchun o'rganilishi muhim deb hisoblangan.

O'rta asrlarning oxiridan boshlab bilimga asoslangan, intellektual tayyorgarlikni talab qiladigan kasblar soni sezilarli darajada oshdi, vaqt o'tishi bilan *shifokorlar*, *me'morlar*, *sudyalar*, *notariuslar*, *internuncus* (*mediatorlar*), *ruhoniylar* ham yuqori sinfga kira boshladilar. Shu sababli, o'sha davr iqtisodiy formatsiyasini bilimga asoslangan iqtisodiyotning o'ziga xos shakli deb aytishimiz mumkin.

G'arb dunyosida "*bilimlar industriyasi*", "*axborot jamiyati*" atamaları birinchi marta amerikalik iqtisodchi **Frits Maxlup**⁸ tomonidan "AQSHda bilimlarni ishlab chiqarish va qo'llash" asarida qo'llanilgan. Mazkur asar **knowledge industry** (bilimlar sanoati) deb atalgan sohaga doir birinchi keng qamrovli tadqiqotdir. Xuddi shu davrda analogik qarashlar va tushunchalar yapon tadqiqotchisi, Kioto universiteti professori **Tadao Umesao** (Tadao Umesao) asarlarida uchraydi. Axborotning jamiyat hayotidagi roliga tadqiqotchilar e'tiborining kuchayishi sanoatda, ishlab chiqarishda bilimlarning tarqalishi va bu jarayonga bog'liq tarzda axborot iqtisodiyotining genezisi va shakllanishi bilan bog'liq. Amerikalik sotsiolog va publitsist **Deniel Bell** postindustrial jamiyat nazariyasining asoschisi hisoblanadi. O'z nazariyasini asoslab berar ekan, industrial sanoat davri inqirozga yuz tutgani oqibatida yangi davr boshlanishi haqidagi g'oyani ilgari surdi.⁹ Bell postindustrial jamiyatning muhim belgilari sifatida xizmatlar sohasining rivojlanishi, intellektual texnologiyalarning taraqqiyoti, bilimlar

⁵ Гидденс Э. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. — Москва: Весь мир, 2004.

⁶ Маклюэн Г. М. Галактика Гутенберга. Сотворение человека печатной культуры. — Перевод с английского и примечания: А. Юдин. — Москва, 2003.

⁷ Маклюэн Г. М., Фиоре К. Война и мир в глобальной деревне — Перевод с английского. — Москва, 2012.

⁸ Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. — Москва: Прогресс, 1966. — С. 77.

⁹ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: Опыт социального прогнозирования. Пер. с англ. / Иноземцев В.Л. — Москва: Academia, 1999. — 956 с.

kodifikatsiyasi, tizimli tahlil va qarorlar qabul qilishda axborot texnologiyalarining hal qiluvchi roli, jamiyat hayotida axborot ahamiyatining oshishi hamda axborot tashuvchilari sonining ko'payishini sanab o'tadi. Bellning postindustrial jamiyati *funksional* (ilmiy, texnologik, ma'muriy, madaniy) va *institutsional* (korxonalar, davlat idoralari, universitetlar, tadqiqot markazlari, ijtimoiy institutlar, harbiy sohalari) tuzilmalarning raqobati va kurashidan iborat hamda intellektual bilim darajasi va kasbiy malaka va kompetensiyalar asosida shakllanadigan sinfsiz jamiyatdir. Bell postindustrial rivojlanishning quyidagi uzoq muddatli tendensiyalarini tasnifladi: jamiyatning asosiy institutsional ehtiyojlari sifatida fan va kognitiv qadriyatlarining rolini kuchaytirish; tadqiqotchilarning qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatini berish; intellektual mehnatning stratifikatsiyasi; an'anaviy qadriyatlar ta'rifining deformatsiyasi; ilmiy-texnikaviy soha vakillari ijtimoiy vaznining oshishi; gumanitar soha bilan ziddiyatlarni keltirib chiqarishi va boshqalar. Bell postindustrial jamiyatning o'ziga xos xususiyatini tavsiflash sifatida "**bilimlar jamiyati**" atamasidan foydalanadi, xususan, "Tarkib topayotgan postindustrial jamiyat" nomli kitobida bilimlar jamiyati iborasini eksplikatsiya qiladi¹⁰.

Amerikalik sotsiolog, siyosatshunos va davlat arbobi **Zbignev Kazimir Brzezinskiy** o'zining "**texnotron jamiyat**" konsepsiyasida Bellning ijtimoiy g'oyalariga tayanadi. "Ikki asr orasida. Texnotron erada Amerikaning roli" nomli kitobida **Brzezinskiy** texnologiyalar asosida shakllangan jamiyat haqida fikr yuritib, texnika inson hayotining barcha sohalariga kirib borishi tufayli an'anaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, milliy mafkuralar inqiroziga olib keladigan ijtimoiy hayotning parchalanishini tahlil qiladi¹¹. Amerikalik iqtisodchi, sotsiolog, futurolog, postindustrial jamiyat konsepsiyasi nazariyotchilaridan biri **Elvin Toffler** tomonidan ijtimoiy evolyutsiya kontekstida axborot jamiyati maqomi hamda uning konseptual xususiyatlari "Uchinchi to'lqin" nomli asarida tahlil qilinadi. Unga ko'ra, tamaddun rivojlanishidagi "birinchi to'lqin" qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan bog'liq, "ikkinchi to'lqin" sanoat inqilobi bilan

belgilanadi, "uchinchi to'lqin" jamiyat hayotining asoslarini tubdan o'zgartiradi va quyidagilarda namoyon bo'ladi: muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarishda yangi usullar va texnologiyalar, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, oiladagi munosabatlar transformatsiyasi, demokratik hukumatlarning tuzilishi¹².

Fransuz sotsiologi **Alen Turen** (Alain Touraine) tomonidan tasniflangan jamiyat va ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasi klassik yo'nalishlardan tubdan farq qiladi. U iqtisodiy determinizmni qayta ko'rib chiqadi, asosiy e'tiborni bilim va madaniyat sohasiga qaratadi. Turen nazariyasi zamonaviy dasturlashtiriladigan jamiyat oldingi jamiyatlarga xos bo'lgan avtonomiya va markaziy o'rnini yo'qotgan iqtisodiy ixtiloflardan uzoqlashishi bilan ajralib turadi. Agrar jamiyatda faoliyatning asosiy turi savdo-sotiq, sanoat davrida ishlab chiqarish, postindustrial jamiyatda faol kommunikatsiyalardan iborat. Postindustrial jamiyatda qarorlar qabul qilish o'z-o'zini tashkil etuvchi va o'zgaruvchan tizim ko'rinishiga ega. Asosiy to'qnashuv ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi sinfiy qarama-qarshilik shaklida namoyon bo'ladigan sanoat jamiyatidan farqli o'laroq, dasturlashtirilgan jamiyatda asosiy ijtimoiy to'qnashuv ishlab chiqarish tizimi va iste'molchi o'rtasida yuz beradi. Ishlab chiqarishning asosini ilm-fan, innovatsiyalarga sarmoyalar ajratish tashkil etadi¹³.

Internet global tarmog'i diskursida axborot jamiyatining nazariyalaridan biri yapon sotsiologi va futurologi, "axborot jamiyatining otasi" **Yoneji Masuda** (Yoneji Masuda) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu nazariya falsafiy-evolyutsion mohiyati bilan ajralib turadi. 1972-yilda nashr etilgan "Axborot jamiyati postindustrial jamiyat sifatida" nomli kitobida Masuda texnologiyalarni kelajak iqtisodiy bazisi va ijtimoiy tuzilmalarining asosi, "axborot ishlab chiqarish va tizimlashtirish bilan shug'ullanadigan yangi bozorning mezon", deb bildi, globallashuv, jamiyat va tabiatning simbiozi hamda intellektual mehnatga asoslangan jamiyatda axborotning strategik ahamiyati hamda ustuvor rolini ta'kidladi¹⁴. Axborot jamiyati

¹² Тоффлер Э. Третья волна / The Third Wave, 1980. – Москва: АСТ, 2010.

¹³ Турен А. Возвращение человека действующего: Очерк социологии. – Москва: Научный мир, 1998. – С. 85-95.

¹⁴ Masuda, Yoneji. The information society as post-industrial society. Editorial Fundesco, 1984. – 327 c.

¹⁰ O'sha asar.

¹¹ Brzezinskiy Z. Between Two Ages. America's Role in the Technetronic Era. – New York, 1970.

nazariyasining yana bir apologeti ispan sotsiologi Kaliforniya universiteti professori **Manuel Kastels** (Manuel Castells) bo'lib, u birinchilardan bo'lib axborot jamiyati haqida global tarmoq kontekstida fikr yuritdi. Kastelsning fikriga ko'ra, axborot va ma'lumotlar almashinuvi insoniyat tarixi davomida tamaddun rivojlanishiga hamroh bo'ldi va barcha jamiyatlarda juda muhim ahamiyatga ega edi. Axborot ijtimoiy hayotni o'zgartiradi, inson faoliyatining barcha sohalariga kirib boradi, axborot tarmog'iga singib ketishi orqali shaxsning xatti-harakatlarini modifikatsiyalaydi hamda axborot jamiyatida faoliyat ko'rsatadigan iqtisodiy shaxsning modelini shakllantirishga imkon beradi. 1996-yilda nashr etilgan "Axborot asri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat" kitobining yakunida Kastels axborot asrining boshlanish sabablarini quyidagicha tavsiflaydi: "*Jarayonlarning o'zaro ta'siri va ular qo'zg'atadigan reaksiyalar yangi dominant ijtimoiy tuzilmani, tarmoqli jamiyatni – yangi global axborot iqtisodiyot hamda yangi virtual madaniyatni yaratadi*"¹⁵. Ingliz tadqiqotchisi **Jeyms Martin** (James Martin) axborot jamiyatining xususiyatlarini quyidagi mezonlarga muvofiq aniqlab berishga harakat qildi: *texnologik* (ishlab chiqarishda, muassasalarda, ta'lim tizimida va kundalik hayotda keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari); *ijtimoiy* (ijtimoiy o'zgarishlarning ko'rsatkichi va muhim stimulyatori sifatida); *iqtisodiy* (axborot iqtisodiyotda manba, xizmat, tovar, qo'shilgan qiymat sifatida); *siyosiy* (axborot erkinligi, aholining turli tabaqalari va ijtimoiy qatlamlari o'rtasida muloqot va konsensus); *madaniy* (shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun axborotning madaniy qiymatini tan olish)¹⁶.

Ijtimoiy paradigmalar hamda jamiyatlar transformatsiyasiga oid nazariyalarning rivojiga postmodernizm mafkurasi katta hissa qo'shdi. Postmodernizm mafkura, ta'lim, falsafa, madaniyatning simbiozi sifatida axborot vositalari orqali ommani manipulyatsiya qilish, "**consumer society**" (iste'molchilar jamiyati) bilan bog'liq umidsizlik natijasida shakllandi. Postmodernistlar

¹⁵ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. 1996 / Пер. с англ. под науч. ред. О. И. Шкаратана. – Москва: ГУ ВШЭ, 2000. – 425 с.

¹⁶ Мартин У. Дж. Информационное общество (Реферат) // Теория и практика общественно-научной информации. Ежеквартальник / АН. ИНИОН; Редкол: Виноградов В. А. (гл. ред.) и др. – Москва, 1990. – № 3. – С. 115-123.

zamonaviy dunyoni *beqarorlik, noaniqlik, simulyakrlar, haddan tashqari iste'mol madaniyati, kastomizatsiya, giperreallik, nochiziqliq taraqchiyot, dunyoni matn deb bilish* kabi konseptlar bilan ta'riflaydilar. Fransuz sotsiologi, postmodernizm vakillaridan biri **Jan Bodrillard** (Jean Baudrillard) zamonaviy voqelikni "belgilar, ramzlar madaniyati" deb biladi. Urbanistik muhitda shaxs ko'pincha ongsiz ravishda talqin qiladigan ma'nolar dunyosiga sho'ng'iydi. Ramzlar, belgilar ommaviy axborot vositalari, reklama va telefon orqali, shahar infratuzilmasi orqali uzatiladi. Tadqiqotchi ma'lumot keskin ortishini, ma'noning kamayganini ta'kidlaydi. Paradoksal ravishda, axborot oqimining cheksizligi, ochiqdigi va iyerarxik bo'lmaganligi zamonaviy sivilizatsiyaning katta yutug'i hisoblanadi, ammo mazkur vaziyatda "texnogen" xavflar haqida gapirish joiz. Refleksiv ongning vazifasi – xavflarni aniqlash va ularni hal qilishning global yo'llaridagi muammolarni hal qilmaguncha taklif qilishdan iborat¹⁷.

Keyingi yillarda axborot jamiyatining uzviy hosilasi va determinanti sifatida "**bilimga asoslangan jamiyat**" iborasi turli xil diskurs hamda kontekstda zamonaviy dunyoga xos real voqelikning o'ziga xos xususiyatlarini talqin etishda hamda hozirgi davrning ko'plab fundamental muammolarining yechimi sifatida qo'llanilmoqda. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotlarda ushbu iboraning *kategorial semantik maydoni* aniqlanishiga ega emas, aksariyat hollarda uning qo'llanilishi muayyan bilim sohasiga bog'liq emasligi anglashiladi.

Zamonaviy iqtisodiy transformatsiya va ijtimoiy entropiya diskursida ma'lumot va bilim o'zgarishlar mohiyatini belgilaydigan tizimli qadriyatlar rolini o'ynaydi. Bilim bilan bog'liq immanent jarayonlar tobora jadallashib, intellektual texnologiyalar va xizmatlar bozorida ustunlik sodir bo'lmoqda, fanni tashkil etish shakllari takomillashtirilmoqda, ta'lim tizimi yangilanmoqda. Yevropa davlatlari rahbarlari tomonidan 2000-yil 22-iyulda qabul qilingan Global axborot jamiyati **Okinava Xartiyasida** ta'kidlanganidek, "*Axborot almashish jarayonlarini rivojlantirishda yangi bosqich boshlandi. Zamonaviy kompyuter, televizor, radio, telefoniya texnologiyalari va aloqa xizmatlari, lokal va global aloqa tarmoqlarining tez tarqalishi transchegaraviy*

¹⁷ Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция / Simulacres et simulation. пер. А. Качалова. – Москва: Рипол-классик, 2015. – С. 13.

ma'lumotlar almashinishning tubdan yangi shaklini yaratdi, ommaviy ongga ta'sir qilish vositalarining ko'payishi globallashuvning ijtimoiy-psixologik va madaniy jihatlarini kuchaytirdi"¹⁸.

Bugungi kunda axborot jamiyatidan bilimlar jamiyatiga o'tish, zamonaviy jamiyatda bilimlarni boshqarish, milliy va global miqyosda yangi ijtimoiy hodisalar hamda ular keltirib chiqarayotgan pragmatik muammolarni aks ettirish, mavjud bilimlarni tizimlashtirish, fan va jamiyat o'rtasidagi interfeysni amalga oshirish, dunyoda, madaniyatda, fan va texnikada sodir bo'layotgan hodisalar, kelajakda insoniyatni kutayotgan texnogen va tabiiy ofatlar, intensiv texnologiyalarni joriy etishning salbiy va ijobiy oqibatlarini tezroq va to'liq o'rganish muammolari ko'p tilga olinmoqda. Bilimlar jamiyati axborot jamiyatining hosilasi sifatida qaraladi, bunda yangi paydo bo'lgan imkoniyatlarga e'tibor qaratiladi.

Bilimlar jamiyati g'oyasi XX asrning o'rtalaridan boshlab Deniel Bell, Piter Druker, Frits Maklup, Yoneji Masuda, Elvin Toffler, Osvald Shpengler kabi tadqiqotchilarning asarlarida tilga olina boshladi. Ammo u kelajak jamiyatiga doir definitsiya sifatida XX asrning so'nggi yillarida keng jamoatchilikni qiziqtirgan mavzuga aylandi. Amerikalik pedagog, iqtisodchi, menejment asoschilaridan biri **Piter Ferdinand Druker** (Peter Ferdinand Drucker) bilimlar jamiyati nazariyasini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Aynan Druker tomonidan 1968-yilda nashr etilgan "Uzilish davri: tez o'zgaruvchan jamiyat uchun ko'rsatmalar" kitobida "bilimlar jamiyati" (knowledge society) va "bilimlar iqtisodiyoti" (knowledge economy) atamaları ilmiy muomalaga kiritilgan¹⁹. Druker taraqqiyotning yangi davrida ta'limga yangicha yondashuvni tatbiq etish lozimligi, bu yondashuv universal bilimlarni shakllantirishga xizmat qilmog'i, tizimli ravishda samaradorlikka erishish uchun uzluksiz ta'lim olish zarurati masalalarini o'rta tashlaydi. Xususan, bilimlarning eskirish xususiyati injeneriya sohasi mutaxassislari oliy ta'lim muassasalarini tugatgandan so'ng 10-15 yil davr ichida yana o'z kasbiy malakasini oshirish uchun qayta tayyorlash kurslarida ta'lim olish zaruratini paydo qiladi²⁰.

¹⁸ Окинавская Хартия глобального информационного общества, 2000 г.

¹⁹ Друкер П. Эпоха разрыва: Ориентиры для меняющегося общества. — Москва: Изд. дом "Вильямс", 2007. — 336 с.

²⁰ Drucker P.F. The Future of Industrial Man. Piscataway: Transaction Publishers, Rutgers The State University, 2009. — 298 p.

O'zining "Postiqtisodiy jamiyat" nomli tadqiqotida (asarning birinchi bobi "Kapitalizmdan bilimlar jamiyatiga" (From Capitalism to Knowledge Society) deb nomlangan) Druker ko'p yillik izlanishlarining o'ziga xos natijalarini taqdim etar ekan, bilimning ijtimoiy jarayonlarni rivojlantiruvchi va harakatga keltiruvchi rolini ta'kidlab, uni nafaqat resurs, balki yangi jamiyat yaratishga qodir konstanta sifatida tavsiflaydi: "*Ehtimol, bugungi jamiyatni "bilimlar jamiyati" deb hisoblash erta, biz faqat bilimga asoslangan iqtisodiy tizimni yaratish haqida gapirishimiz mumkin. Ammo biz yashayotgan jamiyat, albatta, postkapitalistik jamiyat sifatida tavsiflanishi kerak*"²¹. Yangi davrda ta'limning ahamiyatini ta'kidlash uchun Druker "**Educated Society**" iborasini qo'llaydi, jarayon ishtirokchilarining tavsifi sifatida "**knowledgeable man**" (bilimlar egasi va ulardan zarur maqsadlardan foydalanuvchi inson) konseptini muomalaga kiritadi. Druker insoniyat kelajagini innovatsion rivojlanish bilan korrelyatsiyada ko'radi. Innovatsiyalar davrida ta'limning mohiyati va passionar vazifasi shaxsni hali mavjud bo'lmagan sohalarga tayyorlamog'i, apriori zarur kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozimligini uqtiradi.

"Bilimlar jamiyati" atamasining ilmiy muomalaga kiritilishi amerikalik sotsiolog, siyosatshunos **Robin Leyn** (Robin Lane) nomi bilan ham bog'lanadi. Leyn zamonaviy jamiyatdagi fan va ta'limning jadal sur'atlarda rivojlanishi diskursida siyosat va mafkuraning ahamiyati pasayishining gipotetik modellarini ko'rib chiqar ekan, **knowledgeable society** (biluvchi jamiyat), intellektual jamiyat atamalaridan foydalanadi²². Fransuz sotsiologi, faylasufi **Andre Gors** (Andre Gorz) ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichini tavsiflab, uni "**kognitiv kapitalizm**" deb ataydi va bilimlar jamiyatida qadriyatlar imperativi keskin o'zgarishlar va transformatsiyani boshdan kechirishini hamda bilim va intellektual yutuqlarni iqtisodiy resurslarga aylanishi kuchayishini ta'kidlaydi²³. Rossiyalik pedagog, sotsiolog, faylasuf

²¹ Drucker P.F. Post-Capitalist Society. — New York: Harper-Collins Publ., 1995.

²² Lane R.E. The Decline of Politics and Ideology in a Knowledgeable Society // American Sociological Review. 1966. — Vashington. 31. № 5. — 8 p.

²³ Горц А. Нематериальное. Знание, стоимость и капитал. — Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2010. — 26 с.

Kadirbech Delokarov bilimga asoslangan jamiyatni keng falsafiy va ijtimoiy-madaniy kontekstda o'rganish muhimligini e'tirof etadi. Delokarov bilimga asoslangan jamiyat konsepsiyasining mohiyati uning ratsionalizm va ma'rifatparvarlik paradigmasining davomi bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liqligini, bilimlar jamiyati nafaqat kelajakning ijtimoiy rivojlanish modeli, balki bugungi kunda haqiqatga aylanib borayotgan fenomen sifatida o'rganishni, yangi jamiyatni shakllantirishning axloqiy jihatlari, uning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy adolat va ta'lim muammolariga ustuvor ahamiyat berish zarurligini uqtiradi²⁴.

Postindustrial bilimlar jamiyatida kasbiy malaka va kompetensiyalar muhim resurs sifatida qadrlanib, ishlab chiqaruvchi korxona va kompaniya uchun xodimlarning qiymati keskin oshadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, *postindustrial jamiyat rivojlanib post-iqtisodiy bosqichga o'tadi, tarixda ilk marta moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot shaklining intellektual ne'matlarni ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotdan ustunligiga barham beriladi*²⁵.

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va tamaddunning taraqqiyot tendensiyalarini tahlil qilishda "axborot jamiyati" iborasini qo'llashda muayyan ehtiyotkorlik kuzatiladi. Xususan, britaniyalik sotsiolog, pedagog **Frenk Vebster** (Frank Webster) o'zining "**Axborot jamiyati nazariyasi**" nomli kitobida postindustrializm oqimi vakillarining bilimlar jamiyati mavjudligiga va axborotni jamiyatga ta'sir qilish jarayonlariga oid hamda axborot asrining o'ziga xosligini isbotlovchi nazariyalarini tanqid qiladi. Vebster mavjud nazariyalar o'rtasida axborot jamiyatining yangi bosqich sifatida shakllanishini ko'rsatadigan umumiylikni ko'rmaydi²⁶.

Bilimlar jamiyati postindustrial jamiyatning yangi vaqt-zamon kontinuumiga o'tishni tavsiflovchi ijtimoiy rivojlanishning ergonomik konsepsiyasi bo'lib, unda "bilim" dominant (ustuvor) qiymat, iqtisodiy va ma'naviy resursga aylanadi. Bilimlar

jamiyati tadqiqotchilar tomonidan quyidagilar bilan tavsiflanadi: *har qanday faoliyat sohasida muvaffaqiyatga erishish sharti sifatida bilimlarning rolini keng anglash; jamiyatda yangi muammolarni hal qilish, yangi turdagi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish uchun zarur bo'lgan bilimlarga doimiy ehtiyoj; bilimlarni yaratish va uzatish tizimlarining samarali hamkorligi hamda kollaboratsiyasi*.

2005-yilda UNESCOning "Bilim jamiyatlari tomon" nomli hisoboti nashr etildi. Unda "**learning society**" (o'rganuvchi jamiyat), *bilimga asoslangan jamiyatning tamoyil va xususiyatlari, shu jumladan, bilimga asoslangan iqtisodiyot, bilim tarmoqlari, bilim olish erkinligi, ochiq jamiyatni rivojlantirish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, hayot davomida ta'lim olish imkoniyatlari, til va madaniy xilma-xillikni saqlash* kabilar sanab o'tilgan²⁷.

Axborot jamiyatining mohiyati shundan iboratki, insoniyat tamadduni taraqqiyotning agrar va sanoat bosqichidan so'ng yangisiga – axborot bosqichiga qadam qo'ydi, bu davrda axborot eng qimmatli resursga aylanadi va undan foydalanish imkoniyatining keng taraqqiy etgani ushbu davrning diskreptiv xususiyati hisoblanadi. Biroq axborot faqat bilim vositasi, u bilimning aynan o'zi emas. Axborotning ko'pligi, uning hajmi kengligi bilimlarning oshishiga olib kelmaydi. Axborot miqdoriy definitsiyadir, u amaliy xarakterga, foydalilik va boshqa turdagi xususiyatlarga da'vogarlik qilmaydi. Bularning barchasi bilimning xususiyatidir, u ijtimoiy kategoriya sifatida foydalilik, validlik, ishonchlilik xususiyatlariga ega. "*Bilimlar jamiyati axborot jamiyati bilan sinonim emas. Bu rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichi. Axborot bosqichidan keyin innovatsion jamiyat davom etadi va undan keyingina bilim iqtisodiyotiga asoslangan, ma'lumotlarning miqdoriga emas, balki sifatiga e'tibor beradigan bilimlar jamiyati rivojlanadi*"²⁸.

Kanadalik tadqiqotchi, Alberta universiteti professori **Niko Shter** (Niko Stehr) bilimlar dunyosi – bu raqamlar va ijtimoiy statistika dunyosi emasligini uqtiradi²⁹. Shter bilimlar jamiyatlarining paydo bo'lishiga olib keladigan o'zgarishlarning

²⁴ Делокаров К.Х. Глобализация и динамика смысловых координат современной цивилизации // Многогранная глобализация. – Москва: Экспресс, 2003. – С. 11.

²⁵ Иноземцев В.Л. Постиндустриальный мир Д. Белла // Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – Москва: Academia, 2004. – С. 15.

²⁶ Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – С.12.

²⁷ К обществам знания. Всемирный доклад ЮНЕСКО. Париж: Издательство ЮНЕСКО, 2005. – С. 13.

²⁸ Drucker P.F. The New Society. The Anatomy of Industrial Order. – New York: Harper, 2010. – P.16.

²⁹ Штер Н. Социальный и политический контроль за знанием в современных обществах // Международный журнал социальных наук. 2005. № 48. – С. 129-144.

noaniqligi va ijtimoiy muammoli tabiatini tan oladi hamda shunday ta'kidlaydi: *“Ta’limning mohiyatini tashkil qiluvchi zamonaviy jamiyatlar, birinchi navbatda, o’z tuzilmalarini ishlab chiqarishi, o’z kelajagini belgilashi, o’zini o’zi boshqarishi hamda o’zini vayron qilish qobiliyatiga ega bo’lishi bilan ajralib turadi”*³⁰.

Nemis tadqiqotchisi, sotsiologiya professori **Piter Veyngart** (Peter Weingart) bilimlar jamiyati genezisini o’rganishda shunga o’xshash tahlillar qiladi. Xususan, u o’z bilimlar jamiyati haqidagi konsepsiyasini quyidagilarda asoslaydi: *bilimlar ishlab chiqarish va amaliy qo’llanishga yo’naltirish; ijtimoiy o’zgarishlarga olib keladigan ijtimoiy ta’lim jarayoni; fundamental tadqiqotlarning sekin-asta universitetlardan sanoat laboratoriyalariga o’tishi; bilimlar jamiyatida ilm-fan, tabiatni bilish va uning qonunlarini kashf etishga qaratilgan emas, balki uni amaliy qo’llash sohalarida rivojlanadi; ilmiy tadqiqotlar va nazariyalar fanlararo va sohalararo rakursda amalga oshiriladi*³¹. Ushbu o’rinda 2000-yil mart oyida **Lissabon** shahrida bo’lib o’tgan Yevropa Kengashining tarixiy yig’ilishiga ishora qilish to’g’ri bo’lar edi. Sammit deklaratsiyasida barqaror rivojlanish, munosib ish o’rinlari, ijtimoiy birdamlik kabi keng ko’lamli maqsadlarga erishish strategiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, ta’limni rivojlantirish, Internet va onlayn biznesdan foydalanish tizimini takomillashtirish, kasbiy tayyorlash masalalari qamrab olinadi: *“Yevropa Ittifoqining tarkibiy fondlari 2007-2013-yillardagi byudjet davrida kadrlar tayyorlash, innovatsiya va tadqiqot ishlariga ko’proq mablag’ sarflaydi”*³².

Amerika Davlatlari Tashkiloti (Organization of American States) a’zo davlatlarining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yilda qabul qilingan va *“Bilimlar jamiyatining samarali boshqaruvi va rivojlanishi”* deb nom olgan **Santo-Domingo** deklaratsiyasi rivojlanish modeli ko’rinishiga ega bo’lib, u *“bilimlar jamiyatini rivojlantirishni Amerika qit’asi uchun umumiy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy maqsadlarga erishish imkoniyati”* sifatida baholaydi³³.

³⁰ Штер Н. Мир из знания // Социологический журнал. — Москва, 2002. — № 2. — 33 с.

³¹ Weingart P. Die Stunde der Wahrheit? Vom Verhältnis der Wissenschaft zu Politik, Wirtschaft und Medien in der Wissensgesellschaft. Weilerswist, 2001.

³² Лиссабон декларацияси. 2000й. — 7 б.

³³ Санто-Доминго декларацияси. 2006. — 23 б.

“Bilimga asoslangan jamiyatlar: barqaror rivojlanish yo’lida axborot texnologiyalari” nomli nashrda Sharqiy Osiyo tajribasini tahlil qilish orqali, xususan, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan kabi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish passionarizmi, ushbu mamlakatlarning texnologik ta’lim tizimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni qo’llash natijasida erishilgan iqtisodiy rivojlanish darajasi, sanoatni avtomatlashtirish bilimga asoslangan jamiyatning iqtisodiy muammolarini eng samarali hal qilish shakli sifatida talqin etiladi³⁴.

Bilimlar jamiyati nazariyasida Piter Druker qo’l mehnati ishchisi (moddiy mahsulot ishlab chiqaradigan) va bilim sohasi xodimi (nomoddiy mahsulot ishlab chiqaradigan) o’rtasidagi farqni keltirib, jismoniy mehnat tana, moddiylik bilan bog’liqligini, intellektual mehnat esa ong, aql, ma’naviyat bilan bog’liqligini, shuning uchun juda yuqori qadr-qimmatga egaligini ta’kidlaydi³⁵. Aytish kerakki, *“jismoniy mehnat”* va *“aqliy mehnat”* kabi iyerarxik bo’linish, ijtimoiy tabaqalanish hamda stereotiplar bugungi kungacha turli jamiyatlar va madaniyatlarda saqlanib qolgan va qabul qilingan. Sanoat inqilobi va ijtimoiy adolat g’oyasining rivojlanishi ushbu tushunchalarning inversiyasiga olib keldi. O’z vaqtida Platon, Aristotel, Geraklit, Aristofan, Suqrot kabi yunon mutafakkirlari bilimni pulga sotib olish g’oyasiga qarshi bo’lganlar. Ammo o’sha davrlarda bilimlilik jamiyatda yuqori ijtimoiy maqomni belgilaganligi tufayli insonni intellektual va ma’naviy kamolotini ta’minlovchi bilimlarni berish taraqqiy etdi. Ta’lim ijtimoiy institutga aylanib, ta’lim muassasalari, universitetlar tashkil etila boshlagandan so’ng, bilimni yaratish, yetkazish, targ’ib qilish bilan mashg’ul strata (kouchar, tyutorlar, pedagoglar) shakllana boshlagan. Ta’limni institutsionallashtirish bilimlar iqtisodi, ya’ni bilimlar bilan qo’llab-quvvatlanuvchi iqtisod turining shakllanishiga olib keldi. Globallashtirish iqtisodiyotda shunchaki mavjud bo’lish uchun jamiyat ta’limga — tadqiqotlar, ilmiy loyihalar, maqsadli dasturlarga sarmoya kiritishi kerak. Industrial sanoatdan farqli ravishda postindustrial sanoat davrida ishchi kuchidan jismoniy harakatlarni

³⁴ Mansell P.R., When U. Knowledge Societies: Information Technology for Sustainable Development. Oxford: Oxford University Press, 1998. — P. 33-34.

³⁵ Drucker P.F. The Future of Industrial Man. Piscataway: Transaction Publishers, Rutgers The State University, 2009.

amalgam oshirishda qo‘l kuchi talab etilmaydi, balki axborot texnologiyalarini bilishi, ma‘lumotlarni qayta ishlash, algoritmlarni yaratish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Yakuniy qism. Shunday qilib, yangi davr jamiyatlari genezisining eksplikatsiyasida “axborot jamiyati”, “postindustrial jamiyat”, “biluvchi jamiyat”, “o‘rganuvchi jamiyat”, “intellektual jamiyat”, “bilimlar jamiyati”, “kompetentli jamiyat”, “bilimga asoslangan jamiyat” iboralari qo‘llaniladi. Zamonaviy jamiyatlar nazariyalarining tahlili zamonaviy jamiyat holatini tushuntirib beradigan pozitsiyalar va qarashlarning aksariyati iqtisodiy determinizmga, texnokratik ibtidoaga yoki axborotning tarmoq tizimlari sifatida rivojlanishiga e‘tibor qaratishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy jamiyatning konseptual determinantlari tadqiqotchilar tomonidan turli konsepsiyalar diskursida yoritiladi. Nazariyalar evolyutsiyasi U.Rostouning “iqtisodiy rivojlanish bosqichlari” konsepsiyasidan boshlanib sanoat yoki postindustrial jamiyat bosqichi sifatida “axborot jamiyati” (E.Giddens, P.Druker, F.Maxlup, G.Maklyuen, D.Bell, Y.Masuda), **“superpostindustrial jamiyat”** (E.Toffler), **“dasturlangan jamiyat”** (A.Turen), **postfordizm, axborot iqtisodiyoti va texnokratizm prizmasi orqali axborot jamiyati** (D.Bell, E.Toffler, Z.Brzezinskiy ezinskiy, A.Gors); axborot almashinuvining **tarmoq tizimi nazariyalari** (T.Umesao, J.Masuda, M.Kastels); “bilimlar jamiyati” sharoitida ijtimoiy institutlarning rivojlanish jarayonlarini anglash (P.Druker, V.Inozemsev, E.Solomatina), **milliy-madaniy va axloqiy kontekstda bilimlar jamiyati** (R.Mensell, Y.Uen, K.Delokarov, G.V.Osipov, S.G.Kara-Murza), **“postmodern jamiyat”** (D. Bell, J.Liotar, J.Bodriyyar), **“iste‘molchilar jamiyati”** (E.Fromm, J.Bodriyyar), **“kognitiv kapitalizm”** (A.Gors), **xavfli jamiyat, innovatsion jamiyat** (N.Shter) sifatida talqin etiladi.

Ilmiy talqinlarning har biri zamonaviy jamiyat holati va unda yuz berayotgan o‘zgarishlarni o‘z prizmasi orqali ko‘rib chiqadi, shu bilan birga, eksponensial rivojlanish, axborot oqimining keskin tezlashuvi, yangi kommunikatsiya turlarining paydo bo‘lishi, axborotga bilimlar jamiyatining asosiy kapitali sifatida qarash, postgloballashuv,

ommaviy jamiyat, simulyakrlar, dasturlashtirilgan jamiyat, consumer society, nohiziqli tafakkur, shaxs ijtimoiylashuvi masalalarida yakdillikni namoyon etadi. Ushbu konsepsiyalarning har biri ijtimoiy rivojlanishning muayyan aspektlarini ajratib ko‘rsatib, masalaga muayyan iqtisodiy, madaniy omillar, texnologiyalar, ijtimoiy-madaniy, axloqiy-ma‘naviy tahdidlar kontekstida yondashadi. Konsepsiyalar doirasida “bilimlar jamiyati” tushunchasi tamaddunning imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatning egregorial qobiliyatini rivojlantirish, bilimlar kapitalizatsiyasi manbayi, hamda iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotning sharti sifatida talqin etiladi.

Axborot va bilimlar jamiyatining e‘tirofi sifatida BMT Bosh Assambleyasi 2006-yil 27-martda rezolyutsiya qabul qildi, unda **17-may – Xalqaro axborot jamiyati kuni** deb e‘lon qilindi.

Bilimlar jamiyati paradigmasi ma‘naviy-axloqiy va intellektual taraqqiyot, demokratik qadriyatlar va shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishiga e‘tibor qaratadi. Agar axborot jamiyatining salohiyati texnologiya yutuqlariga asoslangan bo‘lsa, bilimlar jamiyatining rivojlanishi ijtimoiy-axloqiy mezonlarni nazarda tutadi.

Bilimlar jamiyati konsepsiyasi eng keng tarqalgan va qayta tiklanadigan manba bo‘lib, u yaratish, ijod qilish qobiliyati hamda uni himoya qilish va rag‘batlantirish kerak, degan postulatni shakllantiradi. Mazkur sharoitda ijtimoiy institut sifatida ta‘limning vazifasi ijtimoiy konvergensiya, madaniy kollaboratsiya, shaxsning ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini kengaytirish, bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Bilim jamiyatlari axborot jamiyati to‘liq erisha olmagan narsaga – madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotga va demokratik hamkorlikning yangi shakllariga erishishga imkon yaratadi. Bilimlar jamiyati konsepsiyasi, bunday jamiyatlarning tashkil etilishi, globallashuv jarayonlarini insonparvarlashtirishga yo‘l ochadi, degan tezisga tayanadi. Bilimlar jamiyatini yaratish uchun faqat axborot uzatish erkinligi bilan chegaralanib qolishning iloji yo‘q, har bir qiziquvchi ishlab chiqarishi uchun uning ilmiy va falsafiy tahliliga asoslanib ma‘lumot almashish, ma‘lumotlarni solishtirish, tanqid qilish, baholash va tushunish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy taraqqiyotga global ijtimoiy texnologiyalar prizmasi orqali qarash bilimlar

jamiyatining asosiy ko'rsatkichlarini (*bilimlar transformatsiyasi, jamiyatning intellektual salohiyati va uning kapitalizatsiyasi, innovatsion faoliyat, bilimga asoslangan iqtisodiyot, madaniy xilmaxillikni ta'minlash, shaxsning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirish, hayot davomida ta'lim olish tizimini yaratish*) aniqlashga imkon beradi.

Postindustrial rivojlanish kontekstida bilimlar jamiyati iqtisodiyotda bilim, axborot va innovatsion o'zgarishlarning ishtiroki yuqori bo'lgan, bilimlar va ilmiy ishlanmalar iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, kasbiy ko'nikma va mahorat, o'rganish va ijodiy qobiliyat dominant resursga aylangan jamiyatdir.

Ijtimoiy tuzilmalarning mohiyatini tushuntiruvchi sotsiologik nazariyalarning³⁶ tahlili muammoga oid ilmiy qarashlar evolyutsiyasini va zamonaviy jamiyat haqidagi asosiy definitsiya va konseptlarni aniqlashga imkon beradi:

1. Deyarli barcha nazariyalar, birinchi navbatda, texnologiyalarni rivojlantirishni, texnologik taraqqiyotni, ishlab chiqarishni avtomatlashtirishni nazarda tutadi.

2. Ilmiy adabiyotlarda muhokama qilinayotgan zamonaviy jamiyat tasvirlari ko'pincha tamaddunning asosiy maqsadlari va ramzlarini aks ettiruvchi metaforik makromodellar ko'rinishiga ega.

3. Bilimlar jamiyatining nazariyalari zamonaviy dunyodagi ijtimoiy o'zgarishlar axborot, bilim va ta'limning yangi roli bilan uzviy bog'liq degan ishonchga asoslangan nazariy tuzilmalardir.

4. Postindustrial jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishning asosini iqtisodiy-siyosiy mavqe emas, balki malaka va ma'lumot tashkil etadi. Ijtimoiy tizimda **“knowledge-class”** (intellektual salohiyat egalari) ijtimoiy qatlami shakllanadi.

5. XXI asrda bilim va axborot to'planishining o'sishi eksponent bo'lib, intellektual texnologiyalarning yaratilishiga olib keladi.

6. Postindustrial jamiyatda intellektual texnologiyalarning o'zni industrial jamiyatdagi mashina texnologiyalarining o'zni kabi muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Postindustrial jamiyatda xizmat ko'rsatish iqtisodiy faoliyatning dominant sohasiga aylanadi.

8. Tezkor axborot almashinuvi nochiziqli tafakkur va nochiziqli rivojlanishni shakllantiradi.

9. Axborotdan cheksiz foydalanish imkoniyati siyosiy chegaralar va ijtimoiy stratalarning mavhumlashishiga olib keladi.

10. Axborot tizimlarining ochiqligi jamiyatni demokratlashtirish darajasining oshishiga olib keladi.

11. Mahsulot ishlab chiqarishdan xizmatlar ishlab chiqarishga o'tish jamiyat farovonligining muttasil o'sishiga olib keladi.

12. Texnologik jamiyatda moddiy farovonlik muammosining umuman hal qilinishi tufayli insonlarning manfaatini ma'naviy muammolar tashkil etadi.

13. Bilimlar jamiyati yangi muammolarni hal qilish, yangi turdagi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarga doimiy ehtiyojning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

14. Bilimlar jamiyatida axborot oqimlarini tezlashtiradigan texnologiyalar va yangi kommunikatsiya usullari rivojlanadi.

15. Bilimlar jamiyatida har qanday faoliyat sohasida muvaffaqiyatning sharti sifatida bilimning rolini keng anglash ustuvorlik kasb etadi.

16. Bilimlar jamiyati konsepsiyasi demokratlashuv va insonparvarlik tamoyillari asosida axborot jamiyatidan yangi turdagi ijtimoiy tuzilmaga o'tish istiqbollarini belgilaydi.

17. Yangi ehtiyojlarning rivojlanishini rag'batlantirish, qo'shimcha resurslardan foydalanish barqaror rivojlanish (sustainable development) g'oyasining ahamiyatini yanada oshiradi.

“Bilimlar jamiyati” nazariyasi mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan yetarlicha o'rganilmagan soha hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu izlanishni bilimlar jamiyatini ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazaridan anglash va talqin qilishga qaratilgan dastlabki urinishlardan deb qabul qilish mumkin. Fikrimizcha, “bilimlar jamiyati” konsepsiyasi metadissiplinar hamda polikontekstual definitsiya bo'lgani bois bilimlar jamiyatini shakllantirishning nazariy va amaliy muammolarini sohalararo va fanlararo diskursda (sotsiologiya, ijtimoiy pedagogika, andragogika, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, antropologiya, futurologiya, falsafa, iqtisod, ta'lim menejmenti) o'rganish va tadqiq etish yaxshi samara beradi.

³⁶ Социология / Под ред. Лавриненко В.Н. — 4-е. — Проспект, 2013. — 471 с. — ISBN 9785392015771.

“Bilimlar jamiyati” fenomeni, bilimlarning institutsional identifikatsiyasi, zamonaviy ilm-fanga oid transformatsion jarayonlar, bilim tarmoqlarining genezisi, bilimga asoslangan iqtisodiyotda intellektual kapitalning oʻrni, tamaddunning rivojlanish istiqbollari belgilaydigan ijtimoiy-texnologik omillar taʼsiri (texnologik singulyarlik

jarayoni tezlashuvining ulkan ehtimoli), shuningdek, ushbu jamiyatda shaxsning intellektual-axloqiy kamoloti va ijtimoiylashuvi muammolari, bilimlar jamiyatiga xos madaniy patternlar va modus vivendi, bilimlar jamiyatining subyekti sifatida shaxsning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish hali oʻz yechimini kutayotgan ekzistensial muammolardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: Опыт социального прогнозирования. Пер. с англ. / Иноземцев В.Л. – Москва: Academia, 1999. – 956 с.
2. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция / *Simulacres et simulation*. пер. А. Качалова. – Москва: Рипол-классик, 2015. – 240 с.
3. Гидденс Э. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. – Москва: Весь мир, 2004. – 120 с.
4. Горц А. Нематериальное. Знание, стоимость и капитал. – Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2010. – 208 с.
5. Делокаров К.Х. Глобализация и динамика смысловых координат современной цивилизации // Многогранная глобализация. – Москва: Экспресс, 2003. – 257 с.
6. Друкер П. От капитализма к обществу знания // Новая постиндустриальная волна на Западе. Антология / Под ред. В.Л. Иноземцева. – Москва: Академия, 1999. – С. 67-100.
7. Друкер П. Эпоха разрыва: Ориентиры для меняющегося общества. – Москва: Изд. дом “Вильямс”, 2007. – 336 с.
8. Иноземцев В.Л. Постиндустриальный мир Д. Белла // Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – Москва: Academia, 2004.
9. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / Пер. с англ. под науч. ред. О. И. Шкаратана. – Москва: ГУ ВШЭ, 2000. – С. 425-42.
10. К обществам знания. Всемирный доклад ЮНЕСКО. – Париж: Издательство ЮНЕСКО, 2005. – 240 с.
11. Лиотар Ж.Ф. Состояние постмодерна. – Москва: Институт экспериментальной социологии. – Санкт-Петербург: Алетейя, 1998. – 160 с.
12. Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. – Москва: Прогресс, 1966. – 462 с.
13. Осипов Г.В., Кара-Мурза С.Г. Общество знания: Переход к инновационному развитию России. – Москва: Книжный дом «Либроком», 2013.
14. Соломатина Е.О. Общество знания: новые стратегии в образовании (социально-философский анализ). Дис. ... канд. филос. наук. – Москва, 2011.
15. Тоффлер Э. Третья волна / *The Third Wave*, 1980. – Москва: АСТ, 2010.
16. Турен А. Возвращение человека действующего: Очерк социологии. – Москва: Научный мир, 1998. – С. 85-95.
17. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – 400 с.
18. Фромм Э. Иметь или быть? – Москва: Прогресс, 1990. – 336 с.
19. Штер Н. Социальный и политический контроль за знанием в современных обществах // Международный журнал социальных наук. 2005. № 48. – С. 129-144.
20. Brzezinski Zb. *Between Two Ages. America's Role in the Technetronic Era*. – New York, 1970.
21. Drucker P.F. *Post-Capitalist Society*. – New York: Harper-Collins Publ., 1995.
22. Drucker P.F. *The Future of Industrial Man*. Piscataway: Transaction Publishers, Rutgers The State University, 2009.
23. Drucker P.F. *The New Society. The Anatomy of Industrial Order*. – New York: Harper, 2010.
24. Giddens, Anthony. *The Consequences of Modernity*. Cambridge: Polity Press. 1990.
25. Lane R.E. *The Decline of Politics and Ideology in a Knowledgeable Society* // *American Sociological Review*. 1966. Washington. 31. № 5.
26. Masuda, Yoneji. *The information society as post-industrial society*, Editorial Fundesco, 1984.
27. Mansell P.R., *When U. Knowledge Societies: InformationTechnology for Sustainable Development*. Oxford: Oxford University Press, 1998.